SHAHAR YUK TASHISH LOGISTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: XALQARO TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON SHAROITIDAGI IMKONIYATLAR

Talaba: **Abduvaliev Sannatali**
O’qituvchi: **Yaxshiyev Shakhzod**

Ushbu maqolada shahar yuk tashish logistikasini rivojlantirish masalalari. mavjud muamolar va ularni oldini olish yo‘llari yoritilgan. Shahar hududlarida yuk tashish jarayonida transport tirbantligi ekologik muammolar, yetkazib berish vaqtining ortishi hamda logistika xarajatlarining ortishi kabi holatlar kuzatiladi. Bu maqolada Singapur, Nidirlandiya va London tajribasi tahlil qilinib, ularning samarali jihatlarini O‘zbekiston shaharlarida qo‘llash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Bundan tashari, raqamli texnologiyalar logistika markazlari va ekologik transport vositalaridan foydalanish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kirish

Bugungi kunda shaharlarning kengayishi, aholi sonining ortishi, savdo va elektronn tijoratning rivojlanishi yuk tashish xizmatlariga bo‘lgan talabni kuchaytirmoqda. Ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari, qurilish materiallari, maishiy texnika va internet orqali buyurtma qilingan tovarlarni o‘z vaqtida yetkazib berish shahar iqtisodiyotining muhim qismiga aylangan.

Biroq yuk tashish hajmining ortishi shahar transport tizimiga qo‘shimcha bosim keltirib chiqarmoqda. Yuk avtomobillarining kam vaqtlarda harakatlanishi tirbandliklarni kuchaytiradi, yoqilg‘i sarfi va havoga chiqariladigan zararli gazlar miqdorini kopayishiga sabba bolad. Ayrim hollarda yuklarni qabul qilish va tushirish uchun maxsus joylarning yetishmasligi ham transport harakatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli shahar yuk tashish logistikasini takomillashtirish faqat transport vositalarini ko‘paytirish bilan cheklanmasligi kerak. Bunda yuk oqimini to‘g‘ri rejalashtirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va transport infratuzilmasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

TaDqiqot metodologiyasi

Maqolani tayyorlashda xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy maqolalar va xorijiy shaharlarning logistika sohasidagi tajribasi o‘rganildi. Qiyosiy tahlil usuli orqali turli mamlakatlarda qo‘llanilayotgan logistika yechimlarining afzalliklari va ularni O‘zbekiston sharoitida qo’llash imkoniyatlari baholandi.

Tahlil davomida yuk tashish samaradorligiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar sifatida transport xarajatlari, yetkazib berish vaqti, ekologik ta’sir hamda infratuzilmaning holatiga etibor qaratildi.

Shahar yuk tashish tizimidagi asosiy muammolar

Shahar logistikasida uchraydigan muammolardan biri-transport tirbandligidir. Yuk avtomobillari ko‘pincha yengil avtomobillar bilan bir xil yo‘llardan foydalanadi. Ayniqsa, ertalab va kechki tirband vaqtlarda bu holat yuklarni yetkazib berish muddatining uzayishiga olib keladi.

Ikkinchi muammo — logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganidir. Shaharning markaziy hududlarida yuklarni vaqtincha saqlash, saralash va taqsimlash uchun mo‘ljallangan markazlar kam bo‘lsa, transport vositalari uzoq masofadan harakatlanishga majbur bo‘ladi.

Uchinchi muammo ekologik ta’sir bilan bog‘liq. An’anaviy yoqilg‘ida ishlaydigan yuk avtomobillari atmosferaga zararli gazlar chiqaradi. Bundan tashqari, ortiqcha qatnovlar yoqilg‘i sarfini va transport xarajatlarini oshiradi.

Yana bir muhim masala — logstika jarayonlarida raqamli boshqaruv tizimlaridan yetarli foydalanilmasligidir. Buyurtmalar.transport vositalari va yetkazib berish yo‘nalishlari yagona tizim orqali boshqarilmasa, vaqt va resurslardan samarali foydalanish qiyinlashadi.

Xalqaro tajriba

Dunyoning rivojlangan shaharlarida yuk tashish logistikasini samarali tashkil etish uchun turli yondashuvlar qo‘llanilmoqda.

Singapur tajribasi, Singapurda yuk tashish jarayonlarini rejalashtirish va transport oqimini boshqarishda raqamli texnologiyalarga katta e’tibor beriladi. Singapur shaharsozlik va transport rejalashtirish organlari tomonidan logistika faoliyatini muvofqlashtirish, yuk harakatini kuzatish va transport infratuzilmaidan samarali foydalanish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilgan. Bunday yondashuv transport qatnovlarini aniqroq rejalashtirishga yordam beradi.

Niderlandiya tajribasi. Niderlandiyaning Amsterdam shahrida ekologik transportni rivojlantirish va shahar markazidagi yuk tashishdan chiqadigan zararli gazlarni kamaytirishga qaratilgan choralar amalga oshirilmoqda. Ayrim hududlarda nol emissiyali transport vositalariga bosqichma-bosqih o‘tish siyosati olib borilmoqda. Bu tajriba shahar logistikasida elektr transport vositalaridan foydalanish muhimligini ko‘rsatadi.

London tajribasi. Londonda yuklarni yetkazib berish jarayonlarini birlashtirish va transport qatnovlarini kamaytirishga qaratilgan loyihalar o‘rganilgan. Browne, Allen va Leonardi tomonidan 2012-yilda chop etilgan tadqiqotda yuklarni birgalikda yetkazib berish tajribasi tahlil qilingan. Tadqiqotning muayyan holatida har bir jo‘natmaga to‘g‘ri keladigan

bosib o‘tilgan masofa 14 foizga, korbonat angdrid ekvivalenti chiqindilari esa 55 foizga kamaygani qayd etilgan. Bu natija barcha shaharlar uchun bir xil bo‘lmasligi mumkin, ammo yuklarni birlashtirishning ekologik va iqtisodiy foydasini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston shaharlarida qo‘llash mumkin bo‘lgan takliflar

Xalqaro tajribani o‘rganish asosida O‘zbekiston shaharlarida, ayniqsa Toshkent shahrida, quyidagi yo‘nalishlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, shaharning chekka hududlarida zamonaviy logistika markazlarini tashkil etish zarur. Bunday markazlarda yuklar qabul qilinadi, saralanadi va kichik transport vositalari orqali kerakli manzillarga yetkaziladi. Natijada katta yuk avtomobillarining shahar markaziga kirishi kamayadi.

Ikkinchidan yuk tashish jarayonlarini raqamlashtirish lozim. Maxsus platformalar yordamida transport vositalarining joylashuvi, yuk holati va yetkazib berish vaqti kuzatib borilishi mumkin. Sun’iy intellekt asosidagi dasturlar esa tirbandliklarni hisobga olgan holda eng qulay yo‘nalishni tanlashga yordam beradi.

Uchinchidan, yuk tashish uchun vaqt bo‘yicha cheklovlarni joriy etish imkoniyatini o‘rganish kerak. Masalan, ayrim turdagi yuklarni shahar markaziga ertalabki va kechki tig‘iz vaqtlardan tashqarida olib kirish transport oqimini tartibga solishi mumkin. Bunda oziq-ovqat mahsulotlari, tez buziladigan yuklar va boshqa muhim tovarlar uchun alohida shartlar belgilanishi lozim.

Beshinchidan, ekologik transport vositalaridan foydalanishni rag‘batlantirish kerak. Elektr yuk avtomobillari va kichik elektr transport vositalari shahar ichidagi qisqa masofali yetkazib berish uchun qulay yechim bo‘lishi mumkin. Buning uchun quvvatlash stansiyalarini ko‘paytirish va tadbirkorlarga tegishli rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim.

oltinchidan, yuklarni birlashtirib yetkazib berish tizimini rivojlantirish lozim. Bir nechta korxonaning kichik buyurtmalarini yagona transport vositasida yetkazish ortiqcha qatnovlarni kamaytiradi. Bu usul transport xarajatlarini qisqartirish bilan birga yo‘llardagi yuklamani ham pasaytiradi.

Takliflarning samaradorligini baholash

Taklif etilgan choralarning natijasini aniqlash uchun bir nechta ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin. Jumladan, yukni yetkazib berish uchun sarflanadigan o‘rtacha vaqt, bir buyurtmaga to‘g‘ri keladigan transport xarajati, transport vositalarining bosib o‘tgan masofasi, yoqilg‘i sarfi va zararli gazlar chiqindisi muntazam tahlil qilinishi kerak.

Bundan tashqari, logistika markazlari tashkil etilgan hududlarda yuk avtomobillari harakati va tirbandlik darajasidagi o‘zgarishlarni kuzatish muhim. Natijalar asosida qaysi choralar samarali ekanini aniqlash va ularni boshqa hududlarda ham qo‘llash mumin.

Xulosa

Shahar yuk tashish logistikasini takomillashtirish zamonaviy shahar iqtisodiyotining muhim vazifalaridan biridir. Transport tirbandligi, ekologik muammolar va logistika xarajatlarining ortishi ushbu sohada yangi yechimlarni joriy etishni talab qiladi.

Xalqaro tajriba shuni korsatadiki, logistika markazlarini rivojlantirish, raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish, yuklarni birlashtirib yetkazish va ekologik transport vositalarini qo‘llash yaxshi natija berishi mumkin. Ushbu yondashularni O‘zbekiston shaharlarida mahalliy sharoitni hisobga olgan holda bosqichma bosqich joriy etish maqsadga muvofiq.

Ayniqsa Toshkent shahrida yuk tashish yo‘nalishlarini optimalashtirish, shahar chekkalarida logistika markazlarini tashkil etish va transport harakatini raqamli boshqarish orqali yetkazib berish samaradorligini oshirish mumkin. Natijada nafaqat tadbirkorlarning xarajatlari kamayadi, balki shahar aholisi uchun qulayroq, xavfsizroq va ekologik jihatdan barqaror transport muhiti tashkil topadi.